

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “SAODAT SOHILI”
SHE’RIDA ZAMONAVIY BAXT FALSAFASI**

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O’zbekiston Davlat Jahon tillari

Universitet Ingliz filologiyasi Fakulteti 2-bosqich talabasi

Feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg o’zbek she’riyatida o’ziga xos poetik uslub va ovozga ega taniqli shoirlardandir. Uning asarlari Sharq va G’arb adabiyoti an’analari o’zida mujassamlashtirgan bo’lib, o’zbek adabiyotining rivojini yangi bosqichga olib chiqishga va dunyoga tanitishga beqiyos hissa qo’shgan. Shoir o’z asarlarida zamonaviy lirikaning eng muhim xususiyatlari bo’lmish inson ruhiyatining murakkabligi, uning ongostida va qalbida tinimsiz sodir bo’luvchi ichki izlanishlar, falsasii fikr-mulohaza va nozik ironiyani uyg’unlashtirib keng kitobxonlar ommasini olqishi, mehriга sazovor bo’lgan durdona asarlarni yozgan. Faynberg ijodida so’zning ritmik va obrazli kuchi, poetik tasvirlarning teranligi uning uslubini aniqlab beradi. Faynberg she’riyatida romantik ideal va hayotiy realizm uyg’unlashadi. Shoir o’z ijodiy yo’lida Vatan, urush, tinchlik, muhabat, sadoqat, jasorat, adolat kabi turfa mavzularda asarlar yozibgina qolmay, zamonaviy insonlarning baxt, halovat, sevgi kabi abstrakt tushunchalarga nisbatan munosabatini ham falsafiy jihatdan ochib berishga harakat qiladi va bu yo’lda ajoyib she’rlar yozadi. Ushbu maqolada ko’rib chiqmoqchi bo’lganimiz “Saodat sohili” she’ri ham ijodkorning shu yo’lda yozgan asarlaridandir. Aleksandr Faynberg o’zining “Saodat sohili” she’rida baxt, muhabbat va inson ichki izlanishlarini ochib beradi.

Abstract: Alexander Arkadevich Feinberg is one of the famous poets in Uzbek poetry with a unique poetic style and voice. His works embody the traditions of Eastern and Western literature, making an invaluable contribution to bringing the development of Uzbek literature to a new level and introducing it to the world. In his works, the poet combined the most important features of modern lyrics - the complexity of the human psyche, the internal searches that constantly occur in his subconscious and in his heart, philosophical reflections and subtle irony, and wrote masterpieces that have won the admiration and love of a wide audience. In Feinberg's work, the rhythmic and figurative power of the word, the depth of poetic images define his style. In Feinberg's poetry, romantic ideals and vital realism are combined. In his creative path, the poet Not only does he write works on various topics such as homeland, war, peace, love, loyalty, courage, and justice, he also tries to philosophically reveal the attitude of modern people towards abstract concepts such as happiness, pleasure, and love, and in this way he writes wonderful poems. The poem "Coast of Happiness", which we are going to

examine in this article, is also one of the works written by the author in this way. In his poem "Coast of Happiness", Alexander Feinberg reveals happiness, love, and human inner searches.

Аннотация: Александр Аркаевич Файнберг — один из известных поэтов узбекской поэзии, обладающий уникальным поэтическим стилем и голосом. Его произведения воплощают традиции восточной и западной литературы, внося неоценимый вклад в развитие узбекской литературы и её представление миру. В своих произведениях поэт объединил важнейшие черты современной лирики — сложность человеческой психики, внутренние поиски, постоянно происходящие в подсознании и сердце, философские размышления и тонкую иронию, создав шедевры, завоевавшие восхищение и любовь широкой публики. В творчестве Файнберга ритмическая и образная сила слова, глубина поэтических образов определяют его стиль. В поэзии Файнберга сочетаются романтические идеалы и витальный реализм. На своем творческом пути поэт не только пишет произведения на различные темы, такие как родина, война, мир, любовь, верность, мужество и справедливость, но и пытается философски раскрыть отношение современных людей к абстрактным понятиям, таким как счастье, удовольствие и любовь, и таким образом создает замечательные стихи. Стихотворение «Берег счастья», которое мы рассмотрим в этой статье, также является одним из произведений, написанных автором в этом ключе. В своем стихотворении «Берег счастья» Александр Файнберг раскрывает темы счастья, любви и внутренних поисков человека.

Kalit so'zlar: "Saodat sohili", baxt falsafasi, lirika, zamonaviy baxt tushunchasi, ichki izlanish, ideal va haqiqat, muhabbat va insoniy qadriyatlar.

Keywords: "Beach of Happiness", philosophy of happiness, lyrics, modern concept of happiness, inner search, ideal and truth, love and human values.

Ключевые слова: «Пляж счастья», философия счастья, лирика, современное понимание счастья, внутренний поиск, идеал и истина, любовь и человеческие ценности.

“Saodat sohili” she’ri Aleksandr Arkadevich Faynberg ijodidagi eng dolzarb masalalardan biri-baxt, insoniy muhabbat va ichki izlanishlar mavzusini falsafiy jihatdan yoritib beradi. She’rda saodat tushunchasi inson qalbidagi idwal, lekin izlab topilishi qiyyin bo’lgan baxt sifatida tasvirlanadi. Haqiqatdan ham zamonaviy insonlar uchun baxt-saodat kabi tuyg’ular hamma moddiy ehtiyojlarning teng qondirilishi, maddavlatga bog’langan. Agar bu moddiylikka bog’langan ehtiyoqlardan aqlli bir donasi qondirilmasa ular o’zlarini baxtsiz sanab, baxtni qidiradilar, o’zgalarning tashqaridan yaltiroq va hashamatli ko’ringan “baxt”lariga havas bilan qarab umrlarini o’tkazadilar. Asarda lirik qahramon uzoq va cheksiz izlanishlar orqali “saodat sohilini”

topishga intiladi. Ammo oxir-oqibatda baxtning shaxsiy va hayotiy xususiyatlarini kash etadi. Shu tariqa bu she'r zamonaviy baxt falsafasini insonning ichki tajribasi, ongli tanlovi va hayotiy amaliyoti bilan bog'laydi.

Asrlar qa'ridan miltirar umid
Yurakda og'rigan kabi jarohat –
Qaydadir saodat sohili mavjud,
Unda umrboqiy muhabbat, rohat.

“Saodat sohili” she’ri mana shu banddan boshlanib, ilk qatordanoq insoniyat tarixidan kelib chiqqan azaliy orzu-umid timsoli berilgan. Bundan kelib chiqadiki, saodat yashiringan sohilni izlash xususiyati insonda uzoq yillardan, va balki asrlardan beri mavjud. “Miltirar umid” – yorqin, lekin hali to’lib ro’yobga chiqmagan baxt haqidagi insonlar umidi. Garchi zamonaviy dunyoda baxt mos bo’lishi kerak bo’lgan kategoriyalar sonining hisobiga yetib bo’lmasa ham, shoirning asarda aytishicha shukur hissiga ega bo’lgan oldingi davr odamlari ham asli baxtni izlashgan ekanlar. Uni topishga bo’lgan xohish shu qadar kuchli bo’lgan ekanki, qahramon uni topolmay qalbida jarohat orttiribdi. Endi mana shu tushunchalar, istaklar lirik qahramon qalbiga og’riq berib, uni o’ylantiriyapti, uning qalbida ichki kechinmalar ziddiyatini va ruhiy azobni keltirib chiqarmoqda. “Qaydadir saodat sohili mavjud” misrasidagi “saodat sohili” ideal makon, baxt va tinchlik ma’nolarini anglatadi. Bu yerda baxt tushunchasi aniq bor, lekin uni izlab topish lozim ekanligi ta’kidlanadi. “Unda umrboqiy muhabbat, rohat” misrasida esa “sohil” ning mazmuni kengaytiriladi: baxt nafaqat tinchlik va osoyishtalik, balki muhabbat va hayotiy rohatni ham o’z ichiga oladi. Faynberg ushbu band orqali baxtni insoniy va falsafiy g’oya va an’analar bilan uyg’unlashtirib tasvirleydi. Bu yerda lirik qahramonning xayollari juda jo’n. Xuddi “saodat sohili”ni izlasa, uni topsa hamma muammolaqri hal bo’ladiganday. U hayotga yengil qarab, uni faqat mahabbat va rohatdan tashkil topgan deb o’ylab, u shularga erishsa baxtli yashaydiganday fikr yurityapti.

Men dengizchilardan bu haqda so’rdim.
Dedilar: – Izlama, ko’ngling bo’lsin to’q,
Barcha dengiz, barcha ummonni ko’rdik,
Saodat sohili yer yuzida yo’q.

Lirik qahramon baxt manbaini qidirishga kirishib ketadi. Bu jarayonda u “Men dengizchilaridan so’radim” deya tashqi olamga baxt haqidagi savollarni berganini nazarda tutadi. Dengizchilar-tajribali, hayotda eng ko’p narsalarni ko’rib bilgan odamlar timsoli. Bu misra orqali Faynberg insonning baxtni o’z ichidan emas, tashqi dunyodan izlash odatini ko’rsatib beradi. “Dedilar”-Izlama, ko’ngling bo’lsin to’q” deb dengizchilar lirik qahramonga ma’naviy tasalli berishga harakat qilib keyingi qatordagi baxt yashiringan allaqanday yashirin makon mavjud emasligi haqidagi fikrlariga to’laqonli amin ekanliglarini aytadilar. “Saodat sohili yer yuzida yo’q” misrasida baxtni

tashqaridan izlama,baribir baxt bir sohilda jamlanib seni kutmaydi,sen uni o'z ichingdan izla deganday bo'ladilar.

– Yerda bo'lmasa gar, balki falakda,
Balki yulduzlarning ichida nihon?
Kimdir taskin berdi menga yurakdan:
– Bas, iltijo qilma, yig'lama nolon!

Endi lirik qahramon yer yuzidan javob topolmay,uni cheksiz osmondan izlashga urinadi."Falak",ya'ni osmon adabiyotda cheksizlikni ifodalashini hisobga olsak,shoir inson ongidagi o'ylar cheksizligini,uni faqat dunyo cheklay olmasligini aytmoqchi."Nihon" so'zi yashirin,ko'zga ko'rinmaydigan,sirli ma'nosini beradi,ya'ni baxtni birdan topish mushkul,chunki u inson ko'zidan narida."Kimdir taskin berdi menga yurakdan: - Bas,iltijo qilma,yig'lama nolon" qatorlarida lirik qahramon ichki taskin topadi.Unga endi unga qalbidan muloyimlik bilan maslahat berishadi: baxtni seni o'rab turgan dunyodan axtarishing,vaqt yo'qotishing shart emas,ko'ngil va ong bilan ham qoniqishing mumkin.Ayni mana shu satrlar zamonaviy baxt falsafasining asosiy go'yasini ifodalaydi,inson baxtni tashqi dunyodan emas,ichki olamidan va aql bilan qilgan qarorlaridan ham olishi mumkin.

Parqu bulutlardan yuksakda yiroq,
Yulduzlar porlaydi bamisoli cho'g'.
Sayyoralar bisyor osmonda, biroq
Unday sohil yo'qdir, unday sohil yo'q.

Endigi sahnada lirik qahramon "saodat sohili" ga bo'lgan umidini uzadi."Parqu bulutlardan yuksak yiroq, Yulduzlar porlaydi bamisoli cho'g'" misralardagi tasvir izlanishning oddiy yer hayotidan uzoqlashganini bildiradi.Oddiy inson uchun uning hayotidan uzoqlarda joylashgan,unga "shunga erishsam,baxtli bo'laman" degan o'y bilan tinchlik bermayotgan moddiyat-u hashamat xuddi "cho'g'" ga o'xshaydi."Sayyoralar ko'p osmonda,biroq" satridagi "sayyoralar ko'p" birikmasi inson erishmoqchi bo'lgan istaklar,moddiy boyliklar "osmonda",ya'ni ulardan olisda bisyor,lekin o'sha "sayyoralar" yoki ularga egalik qilayotgan hech bir kishida halovat,baxt yo'q demoqchiday.Band oxirida lirik qahramon tushunib yetishni boshladiki,baxt qandaydir uzoq yerlarda ham ,osmonda cho'g'day yaltirab turgan yulduzlarda ham joylashgan emas: "Unday sohil yo'qdir,unday sohil yo'q".Yorqinlik baxtni anglatmaydi.U tashqi ko'rinishdan jozibali,hamma narsani o'ziga tortadiganday tuyulishi mumkin,ammo u har doim ham saodat emas.Bu manzara zamonaviy inson hayoti bilan bir xil: imkoniyat keng,dunyo ochiq,lekin haqiqiy baxtni toppish qiyin.

Baxtinga imkonim o'z qo'limda-ku,
Ijobat aylayman dil xohishini.
– Allo, "Saodat sohili" kafesimi bu?
Stol buyuraman ikki kishilik.

Bu misralar lirik qahramon hayotida tub burilish yasaydigan nuqta. Nihoyat, u eng muhim xulosaga keladi: baxtni tashqaridan qidirib topishning imkoni yo'q, uni u o'z qo'llari, qarorlari bilan yaratishi lozim. "Ijobat aylayman" iborasi faol harakat ifodasi hisoblanadi. Bu passiv kutish emas, ongli ravishda tanlov. Demak, bu degani baxt inson jasoratiga, qilgan harakati, qabul qilgan qarorlariga bog'liq." - Allo "Saodat sohili" kafesimi bu? Stol buyuraman ikki kishilik" qatorlaridagi "ikki kishilik" jumlasini bekorga ishlatilgan. U baxt yakka holda emas, balki insoniy munosabatda, muhabbatda ayon bo'lishini bildiradi. Saodat bu- yaqin inson bilan birga bo'lish, oddiy hayotiy lahzalarni qadrlash.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynbergning "Saodat sohili" she'ri zamonaviy jamiyatdagi zamonaviy insonlarning baxt haqidagi qarashlarini falsafiy va badiiy uslub orqali chuqur ochib beradigan asardir. She'r boshidan oxirigacha lirik qahramonning baxtni izlashi, uni uzoq sohillardan, dengizlar, falak, yulduzlar orasidan qidirishi tasvirlangan bo'lsa-da, she'r yakunida alal oqibat qahramon muhim haqiqatni anglab yetadi-saodat tashqarida emas, insonning o'z qo'lida. Asarda zamonaviy baxt falsafasi uch g'oya asosida ochib beriladi, baxt-azaliy, u tashqi makondan topilmaydigan ideal va u insonning ongli tanlovi, muhabbatida yaratiladigan qadriyat. Faynberg bu she'ri orqali insonlarni baxtni oddiylikda ko'rishga, yaqinlarga e'tibor qaratishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.
2. <https://arm.samdchti.uz/library/download/692>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
4. <https://aroblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
5. <https://n.ziyo.com/>